

AMIR TEMUR BUYUK DAVLAT ARBOBI**Alijonov Baxtiyor Xoshimovich****FarDU Harbiy Talim Fakultiti O'qutuvchisi****Asqaraliyev Asilbek Alimardon o'g'li****FarDU Harbiy Talim Fakultiti Talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va uning boshqaruvi davridagi ijtimoiy-madaniy hayot hamda ma'naviy taraqqiyot omillari o'rganilgan. Temuriylar davri ilmiy va badiiy muhitining o'ziga xos tomonlari tahlil qilingan.

Kalit So'zlar: Ismoil Somoniy, Amir Temur, Ibn Arabshoh, Shom (Suriya), ilm-fan, madaniyat.

Kirish;

Har bir xalqning o'z sardorlari, sarbonlari, alp bahodirlari, millatparvar, vatanparvar farzandlari – sulton podsholari bo'ladi. Ular o'zlarining ijtimoiy, siyosiy faoliyatlari, betakror aql-zakovatlari bilan ma'lum bir jamiyatning ham, unda yashovchi kishilarning ham taqdirini o'zgartirib yuboradilar. O'z xalqining, vatanining ozod va obod bo'lishi uchun fidoyilik, jasorat ko'rsatadilar. Shaxsiy manfaat, shon-shuhrat kabi unsurlarni keyingi o'rinlarga surib qo'yib, millatning dardiga darmon bo'lib yashaydilar. Vatanning, millatning ulug' farzandlari to'g'risida tafakkur qilganimizda ko'z o'ngimizda Buyuk Turon hoqoni Alp Er To'nga, jasoratli qahramon ona To'maris, yovqir Spitamen, sulton Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, noyob aqlzakovat sohiblari – Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy shaxslar namoyon bo'ladi. "Amir Temurdek tarixiy shaxslarni, sarkarda va sohibqironlarni tarix taqozosi, shu zamon talablari, kerak bo'lsa, zamon ehtiyoji hayotga olib keladi va ul zotlarning fazilatxususiyatlarini namoyon qilishga zamin yaratadi... Kimki Amir Temur qadimiy Turkiston zaminida tasodifan paydo bo'lgan desa, xato qiladi.

Nega deganda hech narsa to'satdan paydo bo'lmaydi"¹. Haqiqatda ham ma'lum bir murakkab siyosiy vaziyatlarda xalqda o'z sarboniga, yetakchi, dono rahbarga ehtiyoj paydo bo'ladi. XIV asrning 50-60- yillarida Movarounnahr o'z boshidan alg'ov-dalg'ovli, qattol, siyosiy parokandalik, o'zaro kurash davrini kechirayotgan edi. Shunday murakkab vaziyatda Amir Temur o'z hayoti uchun o'ta xavfli, Vatani, millati uchun sharaflı yo'lni tanladi. Bu purhikmat, Ollloh inoyat qilgan mustaqillik ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyot, xalqaro nufuz yo'li edi. Zero, Amir Temur dunyoga kelgan zamin qadimdan iqtisodiy, madaniy taraqqiy etgan, jahonga yuzlab ulug' aql-zakovat sohiblarini bergan ulkan ma'naviy imkoniyatlarga ega bo'lgan makondir. Shuningdek, murakkab siyosiy vaziyatlar, ijtimoiy inqirozlar holatida millatning alp o'g'lonlari, ulug' siyosatdonlar, sarkardalar Vatan farzandlari sifatida milliy g'urur va salobat bilan kurash maydoniga chiqishlari muqarrarlighi qonuniyatini ham mushohada doirasida tutishimiz zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

«XIII asrning 20-yillarida Markaziy Osiyoga mo'g'ul hukmdorlari egalik qila boshlashlari oqibatida Abu Nasr Forobiy, Muso Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy kabilar zakovati bilan tiklangan ilm-fan va madaniyatimiz qoyalari nurashga yuz tutdi, hukmron mafkura hisoblangan islom dini ham o'z maqomidan anchagina mahrum bo'ldi. Chunki Movarounnahrni o'z ulusi o'laroq tasarrufiga olgan Chig'atoyxon islom dinining ashaddiy dushmani edi»

Yov asoratida qolgan Movarounnahr xalqi, ozodlik kurashiga shaylanar ekan, ko'ksida asrab-avaylab kelgan istiqlol g'oyasini qudratli kuch va harakatga aylantiradigan ma'naviy asosni axtardi. Turonliklarning erkka bo'lgan intilish va irodasini tarbiyalagan er, avvalo, mashhur ajdodlar vatanparvarlighi, so'ngra dini islom va shu yurtda dunyoga kelgan to'rt buyuk tariqat bo'ldi. Mo'g'ullar bosqini arafasida shakllanish bosqichida bo'lgan Futuvvat (javonmardlik, jo'mardlik),

¹ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev sohibqiron Amir Temur tavalludiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyada aytgan so'zi.

Yassaviya, Xojagon (keyinroq Naqshbandiya) va Kubraviya tariqatlari namoyandalari ta'sirida xalq e'tiqodini poklab, ma'nan o'zidan tuban turuvchi dushman ustidan ruhiy g'alabaga erishdi.

Temurning ijtimoiy-siyosiy tamoyillari tizimini yanada batafsilroq bayon qilsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi: 1. Amir Temur iqtisodiyotni har qanday saltanat poydevori, deb tushungan. «Davlatu saltanat - deb ta'kidlaydi, Temur o'zining «Tuzuklari»da, - uch narsa bilan - mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir». Bu bilan Temur davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. 2. Amir Temurning qarashlariga ko'ra, har bir mamlakat, turli xil iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha mintaqalar «xususida to'la ma'lumotlarga ega bo'lishi va ularning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishi» lozim. 3. Amir Temur asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan er egaligiga katta e'tibor qildi va har bir viloyatni idora qilishda davlat, vaqf, xususiy er egaligi tartiblarini saqlab qoldi va bunga er maydonining miqdori, egalik huquqini davlat manfaatini ko'zda tutib, o'zgartirishga harakat qildi. 4. Temur mehnatning yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutib, uni ijtimoiy qadriyat, deb tushundi. 5. Amir Temur iqtisodiy tamoyillari tizimida moliya masalalariga katta e'tibor bergan. Chunki moliya Temur nazarida davlatning iqtisodiy tayanchi hisoblangan.

Temurning siyosiy-huquqiy qarashlari uning axloqiy qarashlari bilan asoslanadi va diniy axloq ustiga quriladi. Shuning uchun ham Temur nazarida har qanday siyosatning muvaffaqiyati podshohning o'z fuqarolariga bo'lgan rahmdilligi, saxovatida-dir. Qur'onda «Taxlaku bi-axloq Alloh» deyilganidek, - deb yozadi Temur, - agar podshoh, biror gunohkorning gunohini kechirsa, bu bilan fuqarosiga rahm qilgan bo'ladi. Mening barcha ishlarimda ana shunday podshohlar menga ibrat bo'ldi»². Temur o'z siyosatida ham adolat, haqqoniylik, odillikka tayanib ish tutdi. Chunki o'z siyosatida haq yo'lini tanlagan.

NATIJALAR

² Temur tuzuklari. Ahmedov B. tahriri. - Toshkent: G'afur G'ulom, - 1991.-144 b.

Amir Temur o'zi yashab turgan jamiyatni eng etuk ijtimoiy tizimga aylantirish, farovon hayot qurish maqsadidagina kurashib qolmay, balki bu g'oyalarning butun dunyoda tantana qilishiga ham ishongan edi. Faqat shu maqsaddagina u harbiylik libosini kiygan edi. U ana shunday maqsadlarda jahongirlik qilgan har bir davlat boshlig'i, asosan, to'rt narsani xotirasida saqlash kerakligini uqtiradi: birinchidan, qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo'lsa, to'g'ri tadbir va kengash bilan ish tutish; ikkinchidan, xatoga yo'l qo'ymaslik uchun har bir ishni ko'p o'ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qilish; uchinchidan, o'z atrofida aslzoda er yigitlarni (amirlarni) to'plash va birlashtirish; to'rtinchisi, bugungi kunning ishini ertaga qoldirmaslik.

Amir Temur dasturi va siyosiy-huquqiy qarashlarida mukammal jamiyatni orzu qilishdan ko'ra, ko'proq uni amalga oshirish hamda uning mas'uliyatini o'z zimmasiga olish yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun ham Amir Temurning davlat arbobi, sarkarda va mutaffakir sifatidagi o'ziga xos tomoni shundaki, u o'zi hukmronlik qilgan saltanat (imperiya) timsolida mukammal jamiyatni qurdi va uni har tomonlama mustahkamlashga harakat qildi. Amir Temur siyosiy ta'limotining muhim jihati jamiyatni boshqarishda qonunning ustuvorligi, qonunchilik masalasidir. Temur saltanatini boshqarishning asosiy sharti, qonunning hamma a'mollardan ustunligini tan olish va uning asosiy qoidalarini yaratishdan iborat bo'ldi. Temurning qonun ustuvorligi tamoyili zaruriy shart ekanligi haqidagi xulosasida, qonunning ustuvorligi juda teran qo'yilgan: bu g'oya Sohibqironning ongida Imom Ismoil Buxoriy, Imom Abu Iso at-Termiziy, Forobiy, Taftazoniylarning huquqiy ta'limotlarini, Burhonidin Marg'inoniyning «Hidoya»sini, uning «Muxtasar» ini maktab va madrasada o'rganib, olimlar bilan bo'lgan uchrashuvlarida eshitish natijasida shakllangan va shuning uchun jamiyatda qonun ustuvorligi masalasiga «Tuzuklar»da keng o'rin ajratgan.

MUHOKAMA

Amir Temurning qanday shaxs va davlat arbobi bo'lganligi hamda uning sifatlari haqida juda ko'p mualliflar o'z fikrlarini aytganlar. Ammo aynan uni ko'rib, suhbat qilgan kishilar Ibn Xaldun, don Klavixox hamda Temurning maslahatchisi va,

ayniqsa, g'arb mamlakatlariga yuborilgan xristian elchisi Ioann Fransiskning, hozirda Parij milliy kutubxonasida saklanayotgan xotiralari, ayniqsa, qimmatli, ishonchli dalildir. «Amir Temur fors, arab va turk tillarini biladi. Qur'on ilmi va Islom huquqshunosligi ilmida shu qadar kuchli olimki hech bir musulmon olimi u bilan munozara kilishga qodir emas, u olim va shoirlarga katta hurmat ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, uning o'zi olim va donishmanddir».

XULOSA

Xulosa ornida shuni aytish lozimki, buyuk sarkarda Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari oz davrida uning saltanatini yanada mustahkam bolishiga olib kelgan. Hozirgi kunda kundan-kun gullab-yashnab borayotgan Mustaqil Ozbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng kolamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur organib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isbotidir. Bu esa xalqimiz kelajagi uchun adolatli turmush tarzi yaratib berish yo lida qilinayotgan say-harakatlarning samarasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.**
- 2. Ahmad ibn Arabshoh. Temur tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1992.**
- 3. Ruy Gonsales de Klavixo. Samarqandga safar xotiralari (1403–1406). – Toshkent: Yozuvchi, 1990.**
- 4. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev sohibqiron Amir Temur tavalludiga bag'ishlangan xiqaro ilmiy konferensiyada aytgan so'zi**
- 5. Temur tuzuklari. Ahmedov B. tahriri.- Toshkent: G'afur G'ulom, 1991.-144 b.**